

**“O‘zmilliybank” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib
chiqish natijalari haqidagi 2025 yil bo‘yicha
HISOBOT**

“O‘zmilliybank” AJning 2025 yilning to‘qqiz oyligida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi. Hususan:

“O‘zmilliybank” AJning korrupsiya holatlari haqida habar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali jami **70 (етмиш)ta** murojaat kelib tushgan, shulardan:

- Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish Boshqarmasining **Ishonch telefoni (78 148-00-89)** orqali **18 ta** murojaat (Navoiy - 3 ta, Surxondaryo - 4 ta, Qashqadaryo – 2 ta, Buxoro - 2 ta, Namangan - 1 ta, Jizzax - 2 ta, Toshkent viloyati – 2 ta, Farg‘ona - 1 ta, Toshkent sh. – 1 ta);
- **Call centre NBU** orqali **1 ta** (Surxondaryo - 1 ta);
- Расмий сайт **Fikr bildiring** orqali **38 ta** murojaat (Қорақалпоғистон Республикаси - 2 ta, Navoiy - 4 ta, Surxondaryo - 2 ta, Samarqand – 4 ta Qashqadaryo – 2 ta, Сирдарё - 1 ta, Namangan - 1 ta, Jizzax - 3 ta, Toshkent viloyati – 6 ta, Farg‘ona - 2 ta, Toshkent sh. – 7 ta va бошқалар - 4 ta);
- **Electron pochta** orqali (anticor@nbu.uz) orqali **10 ta** murojaat (Qashqadaryo – 1 ta, Toshkent shahar - 3 ta, Farg‘ona - 1 ta, Namangan - 1 ta, Jizzax - 1 ta, Samarqand sh. – 1 ta, Sankt Peterburg sh. – 1 ta, Angliya (London) – 1 ta);
- **“Eltuz”** orqali **3 ta** murojaat (Namangan - 2 ta, Farg‘ona - 1 ta).

Boshqa aloqa kanallari orqali murojaatlar kelib tushmagan.

Kelib tushgan murojaatni ko‘rib chiqish natijasida ularda keltirilgan vajlar **korrupsion holatlarga taalluqli emasligi** sababli Bankning tegishli tuzilmalariga taqdim etildi hamda murojaatchilarga tegishli javob xatlari yuborildi.

Bank xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi haqidagi ma‘lumotlar hamda Bankning kontragentlari va mijozlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari to‘g‘risidagi axborot, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaviy va boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq potensial xatti-harakatlar sodir etilganligi aniqlanmadi.

Komplayens tavakkalchiligi bloki
Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi
Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish
bo‘yicha menedjer



Sh.Xudoynazarov

“30“ dekabr 2025 yil